


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

61010100 – Turizm va mehmondo'stlik bakalavriat ta'lif yo'naliшining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti;
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil “01” 08 dagi 277-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”,
“Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va
mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq
malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari
takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat
hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish
huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga
tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Kunduzgi (dual) ta’lim bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.....	8
5.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. Umumiy tavsifi

61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi (dual), kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan malaka talabi asosida amalga oshiriladi. Kunduzgi (dual) ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi *61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha* bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv boshqarma (bo‘limi) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

vazirlik huzuridagi oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi bo‘limlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, turizm va mehmondo‘stlik xizmatlarlarini tashkil etishda ishtiroy etuvchi biznes subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy-boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, turizm mahsulotlari va ularni tashkil etishda qo‘srimcha xizmatlarni ko‘rsatish, reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, xizmatlar bozorini segmentlash, turizm mahsulotining iste’molchilari xulq-atvorini o‘rganish, turizm subyektlari faoliyatini boshqarish, raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, turli mulkchilik shaklidagi turizm, mehmondo‘stlik va xizmat ko‘rsatish

tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyati bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

davlat va nodavlat turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi tashkilotlar, kompaniyalar (firmalar) va boshqalar;

xalqaro turizm va mehmondo‘stlik korporatsiyalari, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari;

mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari, sog‘lomlashtiruvchi va sanator-kurort muassasalari bilan bog‘liq joylashtirish vositalari, turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi umumiyoq ovqatlantirish korxonalar;

turizm sohasini rivojlantirish va targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan davlat va nodavlat tashkilotlar;

turizmnning soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

muzeylar, galereyalar, madaniy meros obyektlari va tarixiy yodgorliklar hamda ularda ekskursiyalarni o‘tkazish, tadbirlarni tashkil etish bilan bog‘liq jarayonlar;

xalqaro tadbirlar, konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va boshqarish bilan bog‘liq jarayonlar;

turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi tadbirkorlik subyektlarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari;

turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi xalqaro, zanjir, tarmoq va mahalliy firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta’minalash;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bilan bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari.

61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv;
- xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

61010100 – Turizm va mehmondo ‘stlik’ ta’lim yo ‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish, huquqiy hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash;

xo‘jalik yurituvchi subyektining moliyaviy-xo‘jalik va xizmat ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o‘rganish;

xizmat ko‘rsatishning texnologik asoslarini bilish;

mehnatni muhofaza qilishning me’yor va qoidalariga amal qilish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xizmatlarni tashkil qilish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejashtirish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini ta’minalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish, turizm biznesi subyektlarining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini nazorat qilish;

xizmat ko‘rsatish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejashtirish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsiya loyihamalarini ishlab chiqishda ishtiroy etish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo‘linmalarini tashkil etish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xalqaro va mahalliy bozorlar uchun yangi turizm mahsuloti, yangi yo‘nalishlardagi turizm marshrutlarini tashkil etish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ tarmoqlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, xizmat ko‘rsatish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

faoliyatni rejashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish; loyihalar samaradorligini baholash;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilot va korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyot hamda turizmning dolzarb yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi tarmoqlaridagi tashkilot va korxonalar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

turizm va mehmondo‘stlik tarmog‘i korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi korxonalaridagi muammolar mavzulari bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

turizm va mehmondo‘stlik sohasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, ularni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

turizm va mehmondo‘stlik industriyasining asosiy tushunchalari, muhim tamoyillari va tarixiy rivojlanishi, turizmnin turlari va istiqbolli yo‘nalishlari haqida bilimga ega bo‘lishi;

mahalliy va xalqaro turizm geografiyasi, madaniyatlararo farqlar va turizm

hududlarining diqqatga sazovor joylari haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya qilish, mijozlar bilan samimiyligini va samarali muloqot qila olish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasida raqobat tahlilini o’tkazish va raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqish;

ekskursiyalar va yo‘nalishlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari ga ega bo‘lish;

turizmda zamонавији raqamli texnologiyalar va dasturlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasidagi korxona va tashkilotlarni, turistik ob‘ektlarni boshqarish;

kasbiy etika qoidalariga rioya qilish, mijozlarga nisbatan hurmat va mas’uliyatli munosabatda bo‘lish;

xodimlarni tanlash, o‘qitish va rivojlantirish, jamoa a’zolarining motivatsiyasini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, xodimlarning ish unumдорligini baholash va oshirish yo‘llarini bilish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi ob‘ektlarda xavfsizlik choralari va protokollarini amalga oshirish, xavflarni baholash va boshqarish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish;

turizm va mehmondo ‘stlik’ sohasi ob‘ektlarning moliyaviy resurslarini boshqarish, budjetini tuzish va nazorat qilish, xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirish yo‘llari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish;

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

3. Amaliyotiga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Malakaviy amaliyotlarni turizm mavsumini inobatga olingan holda, 2,4,6-semestrlar uchun *aprel-may* oylariga hamda 3,5-semestrlar uchun *sentyabr-oktyabr* oylariga rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Dual ta’lim bo‘yicha o‘qishga qo‘yiladigan talablar.

Talabalarga o‘quv jarayoni davomida kunduzgi (dual) ta’lim olish imkoniyatlari va majburiyatlarini batafsil tushuntiriladi va sharoitlar yaratiladi. Xususan:

kunduzgi (dual) ta’lim bo‘yicha mehmonxona va turistik tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzish;

o‘quv jarayoni grafigini ish beruvchi tashkilotlar talabidan kelib chiqib tasdiqlash;

o‘quv rejaning amaliy mashg‘ulotlar qismini mehmonxona va turizm tashkilotlari faoliyatiga moslash;

birinchi kurs talabalarini kunduzgi (dual) ta’limga moslashtirish maqsadida, turizm va mehmonxona biznesiga mos minimal malakalarini shakllantirish;

amaliyot o‘qituvchilari (tajribali soha mutaxassislari)ning tegishli sohada yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishlarini inobatga olish;

hamkorlik qiluvchi tashkilotlarning talabalarga amaliyot o‘tashlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratishlarini nazorat qilish;

amaliyot bazalari va ish beruvchi tashkilotlarda talabalarning mijozlar bilan muloqot qilish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini o‘rgatish va boshqalar.

5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklanamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiy majburiy fanlar	3240	106	1-6
1.01	TNA1106	Turizm: nazariya va amaliyot	180	6	1
1.02	XT11214	Xorijiy til	420	14	1,2
1.03	IN1104	Iqtisodiyot nazariyasi	120	4	1
1.04	FF1104	Falsafa	120	4	1
1.05	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.06	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.07	TRT1206	Turizmda raqamli texnologiyalar	180	6	2
1.08	TMSS1206	Turizm mehmondo‘stlikda standartlashtirish va sertifikatlash	180	6	2
1.09	MRM1206	Mehmonxona va restoran menejmenti	180	6	2
1.10	MTR1306	Mintaqaviy turizm resurslari	180	6	3
1.11	TMR1306	Turizmda marketing	180	6	3
1.12	TMR1306	Turizm mehmondo‘stlikda barqaror va maqsadli boshqaruv	180	6	3
1.13	JIXIM1406	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	180	6	4
1.14	TMI1406	Turizm mehmondo‘stlikda innovatsiyalar	180	6	4
1.15	TI1506	Turizm iqtisodiyoti	180	6	5
1.16	TSR 1504	Turizm siyosati va rejalashtirish	120	4	5
1.17	TM 1606	Turizm mahsuloti	180	6	6
1.18	XTB1606	Xalqaro turizm bozori	180	6	6

2.00	Tanlov fanlar*	1080	36	3-6
Kvalifikatsiya	Iqtisodchi (turizm va mehmondo‘stlik faoliyati bo‘yicha) <i>yoki</i>			
Kvalifikatsiya	Pazzandachilik bo‘yicha menejer (turizm va mehmondo‘stlik faoliyatida)			
	Jami	4260	152	1-6
	Malaka amaliyoti	1140	38	2-6
	Yakuniy davlat attestatsiyasi			
	Jami	1140	38	
	Hammasi	5400	180	

* Fanlar katalogining tanlov fanlari qismi tanlangan kvalifikasiyaga mos holda uning xususiyatlaridan kelib chiqib, o’rnatilgan tartibda shakllantiriladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:


kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, sillabus, profil, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, bitiruv malakaviy ishi, yakuniy davlat attestatsiyasi, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

"61010100 – Turizm va mehmondo 'stlik' ta'lif yo 'nalishi

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:


Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Rektor  M.Po'latov ✓

202_ yil "___"




Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  T.Teshabayev

202_ yil "___"




"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

1-prorektor  D.Nasimov

202_ yil "___"



Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Rektor  G.Rixsiyeva

202_ yil "___"



KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor



M.Boltabaev

M.O.

“Dinara tour service”
turistik firmasi

Direktor




F.Muhammadjonov

M.O.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o‘zgarishi vazirligi huzuridagi
Turizm qo‘mitasi

Rais o‘rinbosari



S.Niyazov

M.O.

“Bo‘stonsaroy” mehmonxonasi

Direktor



A.Hazratqulov

2021 yil « »